


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



"Kelishildi"

O'quv-uslubiy departament  
boshlig'i

*S.S. Davlatov* S.S. Davlatov

Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda  
boshqarish ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan

Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon

DASTURI

1.00. Majburiy fanlar:


- 1.14. Senariynavislik va madaniy –ommaviy tadbirlarni tashkil etish.
- 1.15. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari.
- 1.18. Madaniyat va san'at sohasi marketingi va menejmenti.
- 1.20. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi.
- 1.25. Madaniyat markazlari ishi.


Buxoro – 2025 yil

## ANNOTATSIYA


60212000 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga (bakalavr) malaka(darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Bakalavr yakuniy davlat attestatsiyasi doirasida o'quv rejadagi "1.00. Maqbuliy" hamda "2.00. Ixtisoslik fanlari" fanlari blokidagi Senariynavislik va madaniy –ommaviy tashirlarni tashkil etish, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari, Madaniyat va san'at sohasi marketingi va menajmenti, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi, Madaniyat marketingi ishi fanlari mazmunini qamrab olgan mavzulardan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonini topshiradilar.

Tuzuvchilar:

 S.B. Hamitova, Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

 Sh.K. O'rinov, Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

 Y.H. Genjajev, Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri direktori, O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artisti.

R.R. Avezov, O'zbekiston davlat filarmoniyasi

Buxoro viloyat bo'limnisi



Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

2025 yil «31» yanvar kuni 6 - sonli bayonnomasi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 16 noyabrda №1963-3 son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 10 noyabrda № 38-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi №38-2021-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.

### Muqaddima

- I. Umumiy qoidalar
- II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari
- III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi
- IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi
- V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

### I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.
2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.
3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:  
bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholashi;  
yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;  
komissiya faoliyatini natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari

bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarга tayangan holda olib boradilar.

## II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSİYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob berish olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va baholash

mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

## III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSİYA KOMISSİYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir yili (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki marta dan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) bilan birgalikda xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori makalali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozi videoonlayn ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bita rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

#### IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIVASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-iturim to'g'risida yig'ilish o'tkaziladi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadi, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining

ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismini ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinbosari raisligida o'tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiya sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestatsiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 90 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 ball dan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha kamida 90 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «intilyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga

ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestatsiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 marta dan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'rta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorining buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi ta'qiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlari muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat testi markazi bilan kelishilgan.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-mudda.

60212000 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda

boshqarish ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi og'zaki ishlarini

### BAHOLASH MEZONLARI

Ixtisoslik fanlaridan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savol 5 baho tizimida baholanadi.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, madaniyat va san'at sohasiga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 (besh) baho bilan baholanadi.

Savolga to'g'ri javob bersa, ilmiy-amaliy jihatdan asosli maniqli yoritilgan bo'lsa, biroq bugungi kundagi madaniyat va san'at sohasidagi jarayon bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 (to'rt) baho bilan baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob bersa, biroq quyilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada boyonida tarqoqlik kuzatilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 3 (uch) baho bilan baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri bersa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob bermasa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 2 (ikki) baho bilan baholanadi.

T.r.	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi
1	5 (besh) 23-25- (ball) har bir savol uchun	Quyilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, siyosiy islohotlar va jarayonlarning mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan. O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tatbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi. Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilingan.
2	4 (to'rt) 18-22-ball har bir savol uchun	Javob to'g'ri yoritilgan, unda siyosiy bilimlar asosli yoritilgan, ammo sana va sonlarda chalkashliklarga yo'l quyilgan. Javobda talabning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi. Ijodiy yondashuv mavjud. Talaba muammoni tahlil qilish qobiliyati ega.
3	3 (uch) 15-17-ball har bir savol uchun	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.
4	2 (ikki) 0-14-ball har bir savol uchun	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob bermagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan ayranan so'zma-so'z ko'chirilgan

**60212000 – Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'limi yo'naltirish bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi savollari**

**1.14. Senariyavislik va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish fani bo'yicha:**

1. Madaniy ommaviy tadbirlarning paydo bo'lishi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati ularning turlari haqida ma'lumot bering?
2. Ssenariy va uning turlari haqida ma'lumot bering?
3. Kompazitsion qurilish (kirish, vogcalar rivoji, tugun, qaramqarshilik, kulminatsiya va final) ularni izohlang?
4. Pralog va epilog deganda nimgani tushunasiz, ular qanday bo'lishi kerak?

5. Teatrlashtirilgan tomosha deganda nimani tushunasiz va u qanday xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi?
6. Madaniy tadbirlarda saxna ko'rinishlarini yozish tartibi qanday?
7. Badiy va hijjatli materiallar sintezi deganda nimani tushunasiz?
8. Predmetlar nomidan monolog tayyorlash nima degani. O'z ijodingizda misol keltiring?
9. Ssenariy yozishga cha bo'lgan qadam istioddli ssenarist nimalar qilishi kerak?
10. Qog'ozdan sahnaga! Rejissorning sahnalashtrish rejasi nima uni ichiga nimalar kiradi?
11. Turli noananaviy kengliklar uchun alohida ssenariyalar yaratish deganda nimani tushunasiz?
12. Maydon tomoshalarida bloklar bilan ishlash ular uchun ssenariyalar yozish hamda ularning chiqishlarini tashkil etish jarayoni haqida umumiy tushuncha bering?
13. Ssenariyda maydonga mazmun berish usullarini qo'llash deganda nimani tushunasiz?
14. Ssenariy yozishda san'at turlaridan foydalanish xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
15. Madaniy va ommaviy tadbirlarda musiqiy bezak va shovqinlardan foydalanish haqida ma'lumot bering?
16. Madaniy tadbirlarda rejissor va ssenarist hankorligi.
17. Yozuvchilik qobilyatini shakllantirish uchun nimalar qilish kerak?
18. Rejissorlar faoliyatini o'rganish K. Stenislavskiy kechinma san'ati haqida....?
19. Rejissorlar faoliyatini o'rganish. Meyrxold biomexanikasi haqida...?
20. Rejissorning sahnalashtrish rejasi ichiga nimalar kiradi?
21. Badiiy asar tahlilida tushuncha bering va misol keltiring?
22. Ijodiy hankorlik jarayoni rejissor, matn, rassom va bastakorlar haqida ?
23. Madaniy va ommaviy tadbirlarni tashkil etishning o'iga xosligi nimada?
24. Madaniy va ommaviy tadbirlar tashkilotchisi qanday bo'lishi kerak va uning vazifasi nimalardan iborat?
25. Madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etishda ommaviylik ixtiyoriylik va adolatiylik tamoyillari haqida tushunchangiz?
26. Ommaviy madaniy tadbirlarda kompazitsion tuzilish haqida ma'lumot bering?
27. Ommaviy va badiiy sport tadbirlari va ularning o'tqizilish tartibi haqida ma'lumot bering?
28. Mizanssena so'zi qanday ma'noni anglatadi ? Mizanssenaning qanday turlarini bilasiz?
30. Insennirovka tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
31. Badiiy asar hikoya tanlang va insennirovka yordamida pyesa holatiga keltiring.

32. Sahnalashirish asoslari nimani nimaga va qanday sahnalashirish kerak?
  33. Obraz nima va u qanday yaratiladi?
  34. Teatr va bayram tadbirlari rejissurasining o'ziga xoslik va o'xshash jihatlari. Ulardan kimlarni tanaysiz?
  35. Rejissor va aktyorlik san'ati uyg'unligi haqida nima deya olasiz?
  36. Maydon va teatrdagi ommaviy sahnalarning o'ziga xoslik va ahamiyati nimalardan iborat?
  37. Mirzanssenalar ustida ishlash jarayonida rejissorning funksiyalari nimalardan iborat?
  38. Etyud nima va uning aktyor tartibiyasi vositasi sifatida nimalar deya olasiz?
  39. Etyud yaratish usullari va uning turlari haqida ma'lumot bering?
  40. Rejissor va aktyorlikka oid mashqlardan nimalarni bilasiz?
  41. Turli janrlar ustida ishlashning o'ziga xosligi nimada?
  42. Bayramlar madaniy ommaviy tadbirlarning oliy shakli sifatida. (Bayramlar tarixi va turlari haqida ma'lumot bering)
  43. Bayramlar haqida buyuk mutafakkirlarimizning fikrlari.
  44. Milliy va dunyo bayramlari haqida fikr yuriting o'xshash jihatlari, kamchilik va yutuqlar haqida fikringizni bayon eting.
  45. Bloklaraga ajratish va ularning chiqish jarayonlarini tashkil etish jarayoni haqida ma'lumot bering.
  46. Mavzu va g'oya tushunchalarining sahnalashirish jarayonida funksiyalari nimalarda iborat?
  47. G'oyaviy ko'prik nima? MISOLLAR KELTRING!
  48. G'oyaviy talqin nima? Tarbiyaviy ahloqiy ko'ngilochar mavzularda g'oyaviy talqin.
  49. Repertuar nima va u qayerda bo'ladi uning talablari qanday?
  50. Madaniy-ommaviy tadbirlarda musiqa va shovqinlardan foydalanish haqida ma'lumot bering?
  51. "Madaniy tadbirlarda so'z san'ati" sohaning qaysi bo'g'inlarida qanday foydalaniladi?
  52. Madaniy tadbirlarda texnik vositalardan foydalanish jarayoni haqida ma'lumot bering?
  53. Ijodiy jamoalarning tomosha va konsertlarini tashkil qilish qanday kechadi?
- 2.15. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish asoslari fani bo'yicha:**
1. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi faoliyatining rivojlanishi.
  2. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi-ijtimoiy rivojlanishning dasturlamali.
  3. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvining tarixiy-ilmiy maktablari.

4. Boshqaruvning xorijiy modellari.
5. Boshqaruv va menejment.
6. Boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalar.
7. Boshqaruv qarorlari.
8. Boshqaruv jarayonlari va samaradorligi.
9. Madaniyat va san'at sohasida menejment tizimi.
10. Menejer tushunchasi.
11. Shaxsiy va ishga doir sifatleri va vazifalari.
12. Zamonaviy menejer sifatleri.
13. Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish.
14. Ishga doir etik va etiket.
15. Menejer va yetakchi.
16. Boshqaruv mehnatini ilmiy-ijodiy tashkil etish.
17. Rahbarning o'zini-o'zi boshqarishi.
18. San'at sohasi menejmenti va uning nazariy asoslari.
19. Madaniyat va san'at menejmenti va unga mental omillar ta'siri.
20. Madaniyat va san'at menejmentining istiqbolidagi rivojlanish imkoniyatlari.
21. O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish siyosati va tizimi.
22. Madaniyat va san'at sohasiga oid tashkiliy-huquqiy, meyoriy hujjatlar.
23. Teatrlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
24. Muzeylar va ko'rgazma zallari faoliyatini tashkil etish va boshqarish.
25. Konsert tashkilotlari va badiiy jamoalar faoliyatini boshqarish.
26. Havaskorlik badiiy jamoalari va to'garaklari faoliyatini boshqarish.
27. Tasviriy san'at galereyalarini boshqarish.
28. Madaniyat va san'at taraqqiyotida transformatsion jarayonlar.
29. Nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati va ijodiy jamoalarni boshqarish.
30. O'zbekistonda madaniyat va san'at boshqaruv.
31. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvining tashkiliy-huquqiy asoslari.
32. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi rivojlanishining transformatsion jarayonlari.
33. 2016-2019 yillardagi madaniyat va san'at sohasi faoliyatidagi islohotlarning mazmun-mohiyati.
34. Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi muammolari.
35. "Do'stlik klublari" faoliyati.
36. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish.
37. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish.
38. Soha rivoji yo'lidagi innovatsion g'oyalar.
39. Madaniyat va san'at sohasi taraqqiyotida xorijlik va milliy ekspertlar nigohi.

40. O'zbek maqom, baxshichilik, milliy hunarmandchilik maktablarning o'ziga xos xususiyatlari.

41. Madaniyat va san'at muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish.

42. Madaniyat va san'at muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida yangicha tamoyillar.

43. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosidagi tadbirlar tizimini tashkil qilishda sohaning keksa avlod vakillari ibrat.

44. Madaniyat makazlarining yangicha ish uslublari.

45. Havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish vositalari va usullari.

46. Madaniyat va san'at sohasida innovatsion g'oyalar.

47. Ijodiy imtihonlar – iste'dodlarni tanlab olishning kreativ tamoyili.

48. "Sharq taronalari" Xalqaro festivalining o'zbek va jahon san'ati taraqqiyotidagi o'rni.

49. Maqom san'ati-milliy qadriyatlarining timsoli sifatida.

50. O'zbekistonda yaratilgan baxshichilik maktabi asoslari.

#### 1.18. Madaniyat va san'at sohasi marketingi va menejmenti fani bo'yicha:

1. "San'at menejmenti va marketingi" fanining mazmuni va mohiyati. Fanining maqsad va vazifalari.

2. Menejment ob'ekti va sub'ekti.

3. Menejment va marketing fani foydalanadigan usullar.

4. Qadimgi amaliyot - yangi fan. Boshqaruvning fan sohasi kabi evolyusiyasi.

5. Eski va zamonaviy tashkilotlarni taqqoslash.

6. Boshqarishga sistemalashtirilgan qarash. Boshqaruvga yondashuvlar.

7. Jarayon kabi yondashuv. (Tartibli yondashuv. Vaziyati yondashuv.)

8. Xalq musiqasi sahasining yo'nalishi. Xalq dramasi janrlarining paydo bo'lishi ("bobolar", xalq qo'shiqchilari, sirk san'ati ustalari)

9. Professional estrada janrlarining paydo bo'lishi.

10. Boshqaruvning asosiy tarkibiy elementlari: rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat.

11. San'at sohasidagi menejment badiiy qadriyatlarini (moddiy va mahaviy) yaratish jarayonini boshqarish funksiyalarini bajarishga yordam beradigan maxsus bilim sohasi sifatida.

12. Madaniy xizmatlar bozoriga mualliflar, rejissorlar, ijrochilar va boshqalarning ijodiy faoliyati natijalarini ilgari surish.

13. Tashkilot turlari: rasmiy va norasmiy.

14. Tashkilotlarning umumiy tavsifi.

15. Tashqi muhitga bog'liqlik, gorizontal mehnat taqsimoti, vertikal mehnat taqsimoti.

16. Firmani boshqarish darajalari: institutsional (top menejer, bosh direktor, kengash), rahbariy (direksiya, boshqarma boshliqlari), texnik (bo'limlar, guruhlar, jamoalar boshliqlari).

17. San'at menejeri boshqaruv rollarining tavsifi (bosh menejer, lider, aloqa bog'lovchi)

18. Inson resurslarini boshqarishning strategik ahamiyati va maqsadlari.

19. Motivatsiya asoslari.

20. San'at sohasida personalni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

21. Ijodiy jamoada motivatsion differentsiatsiya.

22. Axborotning boshqaruv jarayonida tutgan o'rni.

23. Axborot turlari. Iqtisodiy, ijtimoiy, statistik, moliyaviy, siyosiy, operativ va boshqa axborot turlari haqida.

24. Tashqi va ichki axborot.

25. Axborot bilan ishlashni tashkil etish.

26. Axborot tizimi haqida tushuncha: kiritish, ishlov berish, chiqarish, teskari aloqa.

27. Biznes axborot tizimlari. Elektron tijorat. Axborot tizimlarining rivojlanish bosqichlari.

28. Axborot tizimidagi jarayonlar va ularni joriy etish.

29. Axborot tizimida tashkilotni boshqaruv tuzilmasi.

30. Axborot bilan kommunikatsiyaning o'zaro bog'liqligi haqida.

31. Bozorini o'rganishda axborot ahamiyati.

32. Loyiha menejmenti.

33. Loyihaning tematik xususiyatini, joylashuvi, amalga oshirilish davriyligi, moliyalashtirish hajmi, loyihaning bozor yo'nalishini hisobga olishning ahamiyati.

34. Intellektual mulkni himoya qilish art-menejer faoliyatining eng muhim sohasi sifatida.

35. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" qonuni.

36. Jismoniy va yuridik shaxslar.

37. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishning fugarolik va boshqa choralarini.

38. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar buzilgan taqdirda davoni ta'minlash usullari.

39. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muzeylarning rivojlanish xususiyatlari.

40. Muzey menejmentining rivojlanish tarixi.

41. Zamonaviy muzey faoliyatini tashkili etish.



42. Zamonaviy muzeyning tashkiliy tuzilish xususiyatlari.
43. Muzey menejmentini rivojlantirish yo'nalishlari.
44. Marketing muhiti tushunchasi va mohiyati.
45. Korxonada mikro-muhiti. Korxonada makro-muhiti.
46. Shou-biznes sohasidagi tijorat faoliyatining tarkibi: marketing va reklama.
47. Marketing tizimida tovar tushunchasi, tovar siyosati va uning o'rni.
48. Yangi tovar ishlab chiqarish strategiyasi.
49. Tovarining hayotiy davri va bosqichlari.
50. Xaridor va narx. Mediator va narx. Sotuvchi va narx. Rassom va narx.
51. Marketing va san'at tushunchasi hamda uning mohiyati.
52. Jitimoiy marketing.
53. Marketing konsepsiyalari va ularning evolyutsiyasi.
54. Marketingning funksiyalari va tamoyillari.
55. Art-menejer marketing faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

#### 1.20. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi fani bo'yicha:

1. NMM muhofazasining zarurati, uning mohiyati va sohalari.
2. Ijrochilik san'ati.
3. Xalq tomoshana san'ati.
4. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari.
5. O'zbek xalq qo'shiqlari.
6. O'zbek xalq maqol va matallari. Topishmoqlar.
7. O'zbek xalq nasri poetikasi.
8. O'zbek xalq dostonlari.
9. Xalq urf-odat bayramlari tasnifi.
10. Urf-odat, marosim va bayramlarning kelib chiqish tarixi va o'ziga xos xususiyatlari.
11. Nomoddiy madaniy merosni o'rganishda "Avesto"ning o'rni.
12. Bolalik davri bilan bog'liq urf-odat va marosimlar.
13. Nikoh to'y marosimlari.
14. Diniy marosim va urf-odatlar.
15. Mavsum bilan bog'liq urf-odat va marosimlar.
16. An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.
17. O'zbek xalq kulolchilik san'ati.
18. Mato bilan bog'liq hunarmandchilik turlari.
19. Kashado'zlik san'ati.
20. Metalga ishlov berish san'ati.
21. Zardo'zlik san'ati.
22. Xalq me'morlik san'ati.

23. Yog'och o'yakorlik san'ati.
24. Tabiat va ko'rinot bilan bog'liq urf-odatlar.
25. Nomoddiy madaniy meros muhofazasida mahalliy tajriba.
26. Chorvachilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.
27. Dehqonchilik va bog'dorchiilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.
28. An'anaviy xalq tabobati.
29. Milliy jiboslarda xalq turmush tarzining aks etishi.
30. Milliy taomlar bilan bog'liq an'analar.

#### 1.25. Madaniyat markazlari ishi fani bo'yicha:

1. Madaniyat markazlarining boshqaruv tizimi.
2. Madaniyat markazlari Nizomi.
3. Madaniyat markazlari xodimlarining vazifalari.
4. Madaniyat markazlarida aholining turli qatlamlariga differensial yondashuv.
5. Madaniyat markazlarida keksa avlod auditoriyasi.
6. Madaniyat markazlarida xotin qizlar, o'smirlar, bolalar auditoriyasi.
7. Madaniyat markazlari madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida.
8. Madaniyat markazlari aholining ijodiy qobiliyatini shakllantiruvchi obyekt sifatida.
9. Madaniyat markazlari bilim va ma'rifat maskani.
10. Madaniyat markazlarida istiqbolli ish reja. Hamkorlik ish rejalari.
11. Madaniyat markazlarida mavsumiy ish rejalari.
12. Madaniyat markazlarida oylik ish rejalari.
13. Madaniyat markazlarida madaniy tadbir senariysi.
14. Madaniyat markazlarida illyustrativ va teatrlashtirilgan madaniy tadbirlar.
15. Madaniyat markazlarida sahna tadbirlari turlari va usullari.
16. Madaniyat markazlarida maydon tomoshalarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
17. Madaniyat markazlarida maydon tomoshalarining turlari va janrlari.
18. Madaniyat markazlarida madaniy-ommaviy tadbirlar.
19. Bayramlar klassifikatsiyasi.
20. Madaniyat markazlarida festivallar, ko'rik tanlovlar va sport bayramlarini tashkil etish.
21. Insoniyatning ijodkorlik tuyg'ularini shakllantirish omillari.
22. Qiziqishlar va qobiliyat mutanosibligi.
23. Iqtidor va qobiliyat.
24. Madaniyat markazlarida professional jamoalar bilan hamkorlikni tashkil etish jarayonlari.
25. Madaniyat markazlarining konsert tashkilotlari bilan hamkorlik.

26. Madaniyat markazlarida teatrlar va badiiy jamoalar bilan hamkorlik.
27. Madaniyat markazlarida badiiy havaskorlik to'garaklari turlari.
28. Madaniyat markazlarida badiiy havaskorlik to'garaklarini tashkil etishning zamonaviy metodlari.
29. Madaniyat markazlarida to'garak qatnashchilari bilan pedagogik jarayon.
30. Madaniyat markazlarida pullik kurslarni tashkil etish usullari.
31. Madaniyat markazlarida ma'rifiy kurslarni tashkil etish.
32. Madaniyat markazlarida maishiy kurslarni tashkil etish.
33. Madaniyat markazlarida hududiy nomoddiy madaniy meroslarni o'rganish.
34. Madaniyat markazlarida nomoddiy madaniy meros targ'iboti.
35. Madaniyat markazlarida milliy urf-odat va an'analarni targ'iboti.
36. Madaniyat markazlarining davlat byudjetidan ta'minoti.
37. Madaniyat markazlarining xo'jalik hisobidan daromadlari.
38. Madaniyat markazlarida vasiylik va homiylik daromadlari.
39. Madaniyat markazlarining oylik hisobotlari.
40. Madaniyat markazlarining mavsumiy hisobotlari.
41. Madaniyat markazlarining yillik hisobotlari.
42. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati.
43. Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish.
44. Madaniyat va san'at muassasalarida ijodiy jarayonlar uchun qulayliklar yaratish.
45. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident Fatmoni.
46. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident qarori.
47. "Obod qishloq", "Obod mahalla". "Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturlari.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

##### Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bodishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari haq'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nuqti: // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratiik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016. - 56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyo'i va xalq farovonligining garovi. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

##### Asosiy adabiyotlar:

1. A. Haydarov – Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari" 123-bet. T.: "Kamalak" nashriyoti, 2019 yil.
2. Nazarbekov O.A – "Madaniyat va san'atsiz jamiyat rivojlanmaydi. Abdurahimova.M. – yoshlar o'rtasida kitobxonlik va mutolaa-madaniyatini yuksaldirish va uning o'ziga xos xususiyatlari/viewer. cyberleninka.ru
3. Rustamov V. – "Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti., T.: 2013 y.
4. Rustamov V. – Senariynavislik mahorati., Toshkent: 2017 y.
5. Qoraboyev U. N. Vadiiy-omtmaviy tadbirlar –T. O'qituvchi, 1986.
6. Ahmedov F.E. Otmaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Toshkent, Aloqachi, 2008, 223 bet
7. Muhammad N. Senariynavislik asoslari. Toshkent, Fan va texnologiya, 2008, 3 bet
9. Azizxo'jayev A, Aminov M, Daminov T. va b. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-jild. Solihoma – To'utera. Tahlilgi hay'ati: Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 188 bet
10. Mamaqosimov J.A. Otmaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. Toshkent, Fan va texnologiya, 2009, 24 bet
11. Ал Д.Н. Основы драматургии и сценарного мастерства. Ленинград, 1991, Стр. 23
12. Qurbonov Sh, Saidov N, Ahlididinov R. Varkamol avlod orzusi. To'rlam.- Toshkent, 1999 yil.
13. Vegmatov A., Rustamova R. Milliy g'ouya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. –T.: «Ma'naviyat», 2007.- 64 b.
14. Zarifov K.Z. O'quvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarlarining roli. – Toshkent. O'qituvchi, 1993 yil.
15. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1993 yil.
16. Olimov Sh.Sh. Simfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'quvchilar axloqiy-estetik idealini shakllantirishdagi o'rni. Xalq ta'limi jurnali. 2000 yil 5-son.
17. Munavvarov A.Q. Pedagogika, Toshkent.: O'qituvchi, 1996.
18. Qurbonov M. va boshqalar. Tadbir samaradorligining o'n sharti. - T.: «Istiqlob», 2006.- 24 bet.
19. Qoraboyev U, Sotayov G' "O'zbekiston madaniyati" Toshkent-2011

20. Pulatov T. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni moliyaviy ta'minlashning hozirgi zamon muammolari. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - Toshkent: 2003.
21. Xolmo'minov M. Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy omillari.
22. Xolmo'minov M. – "2017- 2022-yillar mobaynida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi" – Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022.
23. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478-2
24. To'yechiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
25. Qodirov A. – Madaniyat va san'atga bo'lgan e'tibor davlat siyosatida.
26. Haydarov A. Milliy madaniyat renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2020. - B. 6
27. Mahmudov N. Xalqimiz ma'naviy olamini yanada yuksaltirishning mustahkam poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
28. Abu Nisr Forobiy. "Fozil odamlar shahri", Toshkent, G'afur G'ulom. Adabiyot va san'at nashriyoti", 1993.
29. Avloniy A. Turkiy g'uliston yoxud axloq. Toshkent. 1993
30. Bekmurodov B, Quronboev Q, Tangriyev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal tarag'iyot va yangilanish sari. Toshkent. G'afur G'ulom. 2017
4. Strategic Innovation Management University of Exeter, John Bessant, 978-92-85513-9-5 2014.
31. Innovation Management, Institute for Innovation and Technology, prof. Borut Likar ISBN 978-91-90592-9-6, Sloveniya. 2013 180 p
32. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018.
33. To'yechiyeva S, Norbekov A. Jilmoiy siyosiy faoliyat. Toshkent. Fan va texnologiyalar (lotinda yoziladi). 2010
34. Xaydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. – Toshkent G'ulom. 2016.
35. Strategic Innovation Management University of Exeter, John Bessant, 978-92-85513-9-5 2014.
36. Innovation Management, Institute for Innovation and Technology, prof. Borut Likar ISBN 978-91-90592-9-6, Sloveniya, 2013 180 p
37. Qosimova G. "Management nazariyasi" Toshkent 2011.
38. Muxitidinov X.A., Sobirov A.A. "Boshqaruv nazariyasi", 2008.
39. Zaynuddinov Sh.N. Menjment asoslari. Toshkent, Molliya 2006 y.
40. Abduraxmonov Q.X. "Mehnat resursini boshqarish" Toshkent 2014.
41. Larpigim Y.U.N. Strategicheskiy menedjment. Uchebnoe posobie. - M.: Eksmo. 2010. - 432 s..
42. O.S. Vixanskiy, A/Naimov. Menedjment. M., Vi, isshtaya shkola, 2007 g.
43. I.M. Omarov. Rukovoditel v stile upravleniya. M., Artiya, 2005 g.
44. Idriskava. Yaponskiye metodi upravleniya kollektivom. M., Progress, 2004 g.
45. Qosimova D.S. "Menedjment asoslari". O'quv-uslubiy majmua. T.: TDIU 2011, - 428
46. Menedjment. Uchebnoe posobie. - M.: KNORUS, 2010. - 496 s.
47. Nurimbelov.R. Menjment: Amaliy mashqlar. T., Musiqa. 2007. - 187 b.
- Axunova G.N. Marketing. -T., 2005.
48. Qosimova M.S., Ergashxo'jayeva Sh.J., Abduxalilova L.T., Muxitidinova U.S., Yuldashov M.M. Strategik marketing. -T.: O'qituvchi, 2004.
49. Semenov A.S. Organizatsiya rabotti sovela direktorov aksiionernogo obshstva. — M.: Sovetnik emitenta, 2007. — 184.
50. Morozov V.Yu. Osnovbi marketinga: Uchebnoye posobie. - 5-e izd., ispr. I dop. - M.: Izd. «Dashkov I.K.», 2006. - 148s.
51. Иванов Г.В Основы продюсерства. Аудиовизуальная сфера - M.: Юнги, 2012. - 719 с.
52. Uolker O. Marketingovuxa strategiya — M.: Vershina, 2006. -384 s.
53. Sayfullayev B., Yo'ldosheva S. va boshqalar NMM va folklor ijro san'ati an'analari. O'quv qo'llanma. T. "Navro'z", 2017. 215 b.
54. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. T. "Barkamol fayz media", 2017. 180b.
55. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D., O'zbek xalq ijodi xretamatsiyasi. T., "Aloqachi", 2008. 100b.
56. Haydarov Z., Nomoddiy madaniy meros. Ma'ruzalar matni. Namanagan., 2014 yil.
57. U. Qoraboyev. «Madaniy tadbirlar». T.: 2006.
58. Qoraboyev U.X. O'zbek xalq bayramlari. -Toshkent: O'qituvchi. 2002.
59. X. Muhammad. Senariynavislik asoslari. T. Fan va texnologiy. 2009.
60. V. Rustamov. Senariynavislik mahorati. T.: 2016.
61. B. Axmedov. Adabiy va rejissyor Senariysi. T., 2008
62. X. Abdusamatov. Drama nazariyasi. T. O'qituvchi. 2003.
63. B. Sayfullayev, V. Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent: Fan va texnologiya. 2016.

Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri



T.I. Rajabov